



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**No1**  
MAXSUS SON



## BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### **Bosh muharrir:**

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

### **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### **Muharrir:**

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr. 141 sahifa.  
2026-yil yanvar*

### **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjajevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT .....	10
Urinboev Bexruz Zoir o'g'li, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI .....	15
Jabborov Muhammad Sanjarovich, Djurayeva Dilnoza Davron qizi, Song Jichung	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH OMILLARI VA MAKROIQTISODIY TA'SIRI .....	21
Xoliqulova Ra'no Sherali qizi, Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich	
КУЛЬТУРНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА .....	25
Ахтамов Огабек Улугбек угли, Фахритдинов Амриддин Фазлитдинович, Саидмуродов Жонибек Жахонгирович, Саттарова Зухра Илхомовна	
DAVLATNING YASHIL INVESTITSIYALAR ORQALI IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI.....	31
Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI O'SISHIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING STRATEGIK O'RNI: PREZIDENT MUHOJIRATNOMASI ASOSIDA ILMIY TAHLIL .....	35
Ma'rupov Zahiriddin Feruzovich, Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDAGI BIZNES-SUBYEKTLARINI BAHOLASH: ESG MEZONLARI ASOSIDA BARQARORLIK INDEKSINI ISHLAB CHIQISH VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI .....	39
Po'latov Orzubek Fazliddin o'g'li, Haqnazarova Yulduz Juraqulovna	
ФИНАНСОВЫЕ ИНСТИТУТЫ КАК ФАКТОР МОДЕРНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА .....	43
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
AKSIZ SOLIG'I TUSHUMLARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET DAROMADLARIDAGI ULUSHI: 2020–2024-YILLAR BO'YICHA IQTISODIY TAHLILI .....	49
Karimov Diyorbek, Abdurashidov Abdusamad	
O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINING SOLIQ TUSHUMLARI VA FUQAROLARNING SOLIQ INTIZOMIGA TA'SIRI .....	55
Maxkamova Dildora Shavkat qizi, Ergashev Shavkat Maxkamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В МАРКЕТИНГОВЫЕ КОММУНИКАЦИИ КОМПАНИЙ .....	59
Рахимжонов Аброр Марифжанович, Кахрамонов Хуршид Шухратович	
BOZOR IQTISODIYOTIDA UMUMIY TALAB VA UMUMIY TAKLIF .....	66
O'ktamova Shaxruza Abror qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJTIMOYIY TARMOQLAR ORQALI MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH USULLARI (O'ZBEKISTONDAGI YIRIK BRENDLAR MISOLIDA).....	70
Axmedova Robiya Rustamovna, Kadirova Sharafat Amonovna	
MINTAQANING INNOVATSION IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYASI .....	76
Rushana Taxirova, F.U.Umarov	
SAMARQAND VILOYATI UCHUN TURIZM MAHSULOTLARINI YARATISH .....	83
Alimardonova D.T., Tursunova G.R.	



BUXORO VILOYATINING MADANIY VA TARIXIY MEROSI ASOSIDA KREATIV TURIZM MAHSULOTLARINI YARATISH IMKONIYATLARI.....	91
<b>Davronova G.O., Tursunova G.R.</b>	
MAIN DIRECTIONS OF ECONOMIC AND SOCIAL EFFICIENCY IN SERVICE ENTERPRISES .....	96
<b>Ilamonov Mehroj Akbar o'g'li, Xayitov Jamshid Xolvoyevich</b>	
KREDIT MEXANIZMINING ELEMENTLARI O'RTASIDAGI ALOQADORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	102
<b>Alimov Umid Xamid o'g'li, Umarov F. U.</b>	
SURXONDARYO VILOYATIDA EKSPORTNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINING AHAMIYATI.....	109
<b>Mamanazarov Javohir Kamolovich, Xurramov Ramazon Allayor o'g'li</b>	
XALQARO BANKLAR TOMONIDAN INVESTITSION LOYIHALARNI KREDITLASH MEXANIZMI VA UNING IQTISODIY TA'SIRI .....	115
<b>Boltayeva O'g'iloy, Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li</b>	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI VA UNING USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	119
<b>Sharipova Mohinur, Uralova Sevara, Zaripova Sayohat Zafarovna</b>	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLASHTIRISH VA EKOLOGIK BARQARORLIK: ZAMONAVIY INTEGRATSIYA YO'NALISHLARI.....	123
<b>A'zamova Feruza Abduholiq qizi, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich</b>	
DIRECTIONS FOR IMPROVING PUBLIC WELFARE AND REDUCING POVERTY.....	127
<b>Jumanazarov Ro'zmurod, Rabbimov Elbek Abdulloyevich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li</b>	
THE EVOLUTION OF E-COMMERCE IN UZBEKISTAN: TRENDS, DRIVERS, AND FUTURE PROSPECTS.....	132
<b>Madina Abdujabborova, Nozima Zufarova</b>	
IQTISODIY TRANSFORMATSIYA JARAYONINI BOSHDAN KECHIRAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA BOZORLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	136
<b>Hayot Abduqodirov, G'olib Baxriddinov, Karjavova Xurshida Abdumalikovna</b>	



# IQTISODIY TRANSFORMATSIYA JARAYONINI BOSH DAN KECHIRAYOTGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSIYA BOZORLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

## Hayot Abduqodirov

Samarqand davlat universiteti, Bank ishi va audit, 3-kurs talabasi

E-mail: [hayotabduqodirov382@gmail.com](mailto:hayotabduqodirov382@gmail.com)

ORCID: [0009-0000-2814-0505](https://orcid.org/0009-0000-2814-0505)

## G'olib Baxriddinov

Samarqand davlat universiteti, Bank ishi va audit, 3-kurs talabasi

E-mail: [bahriddinogolib0@gmail.com](mailto:bahriddinogolib0@gmail.com)

ORCID: [0009-0000-0882-3376](https://orcid.org/0009-0000-0882-3376)

Ilmiy rahbar:

## Karjavova Xurshida Abdumalikovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti, PhD

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tarkibiy qayta qurish jarayonida jalb etilayotgan investitsiyalar bilan bog'liq masalalar yoritilgan. Tadqiqot doirasida makroiqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan investitsiya jarayonlari empirik tahlil qilinib, investitsion jozibadorlik, investitsiya muhiti, investitsion salohiyat hamda investitsion salohiyatning turlari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari investitsiya muhitini yaxshilash va investitsiya oqimlarini faollashtirish masalalarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** makroiqtisodiyot, investitsiya, investitsiyaga talab, kapital, iste'mol xarajatlari, kapital egalari, investitsion jozibadorlik, investitsiya muhiti, investitsion salohiyat.

**Abstract:** This article examines issues related to investments attracted in the process of economic modernization and structural transformation. Within the framework of the study, investment processes are empirically analyzed from the perspective of macroeconomic theory, and such concepts as investment attractiveness, investment climate, investment potential, and its types are investigated. The results of the study contribute to the scientific justification of measures aimed at improving the investment climate and stimulating investment flows.

**Key words:** macroeconomics, investment, demand for investment, capital, consumer expenditure, capital owners, investment attractiveness, investment climate, investment potential.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы, связанные с инвестициями, привлекаемыми в процессе модернизации и структурной перестройки экономики. В рамках исследования с позиций макроэкономической теории проведён эмпирический анализ инвестиционных процессов, а также изучены инвестиционная привлекательность, инвестиционная среда, инвестиционный потенциал и его виды. Полученные результаты способствуют научному обоснованию мер по улучшению инвестиционной среды и активизации инвестиционных потоков.

**Ключевые слова:** макроэкономика, инвестиции, спрос на инвестиции, капитал, потребительские расходы, владельцы капитала, инвестиционная привлекательность, инвестиционная среда, инвестиционный потенциал.



## KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va tarkibiy qayta qurish, shuningdek, iqtisodiy o'sishning barqaror hamda yuqori sur'atlarini ta'minlash vazifalari milliy iqtisodiyotga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmini izchil oshirishni hamda har bir so'mlik investitsiyaning eng zarur va eng yuqori samara beradigan yo'nalishlarga yo'naltirilishini talab etadi. Ichki investitsiya manbalarining nisbatan cheklanganligi xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida tizimli va maqsadli choralarini kuchaytirishni taqozo etadi.

Investitsiya faoliyatining natijalaridan investor, tadbirkor, davlat va aholi, ya'ni jamiyat manfaatdor hisoblanadi. Investor uchun manfaat investitsiya kiritish orqali olinadigan foydada namoyon bo'lsa, tadbirkor uchun u jalb etilgan mablag'lar hisobiga faoliyatni kengaytirish va qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyati bilan ifodalanadi. Davlat manfaatdorligi mazkur jarayonlar natijasida shakllanadigan daromadlar orqali soliq tushumlarining ko'payishida, aholining manfaatdorligi esa iste'mol bozorining mahsulotlar, ishlar va xizmatlar bilan to'lishida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, mavjud moliyaviy resurslarni faol iqtisodiy aylanishga yo'naltirish ularning samaradorligini oshiradi va umumiy iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonlarni ilmiy asoslash va investitsiya qarorlarining oqilona qabul qilinishini ta'minlashda loyiha tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonlik olimlar E.Sh. Shodmonov, D.Sh. Bababekova va B.O. Tursunovlarning fikricha, investitsiyalar korxonalar va xalq xo'jaligi miqyosida yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish yoki mavjud korxonalarni modernizatsiyalash, ilg'or texnika va texnologiyalarni joriy etish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda foyda (daromad)ni ko'paytirish maqsadida uzoq muddatli mablag'lar kiritilishidir [1].

I.O. Ulashev va Sh.A. Atamuradovlar "Korxonalar iqtisodiyoti va menejmenti" o'quv qo'llanmasida investitsiyaga quyidagicha ta'rif beradilar: investitsiya — bu moliyaviy (pul) yoki real kapitalga mablag' qo'yishdir [2].

R.S. Muratov, I.A. Jalalova va S.Sh. Oripovlarning ta'kidlashicha, investitsiya — bu moliyaviy (pul) yoki real kapitalga mablag' qo'yish bo'lib, u pul mablag'lari, kreditlar hamda qimmatli qog'ozlar shaklida amalga oshiriladi va ko'chmas hamda ko'chmas bo'lmagan mulkka, intellektual mulkka, ne'matlarga bo'lgan huquqlarga hamda boshqa turdagi qiymatliklarga yo'naltiriladi. Boshqacha aytganda, investitsiyalar korxonaning barcha aktivlariga kiritiladigan resurslarni ifodalaydi [3].

Umuman olganda, investitsiyalar korxonalar va xalq xo'jaligi miqyosida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish yoki mavjudlarini modernizatsiyalash, ilg'or texnika va texnologiyalarni joriy etish, mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish hamda foyda (daromad) olishni ko'paytirish maqsadida amalga oshiriladigan uzoq muddatli kapital qo'yilmalar sifatida talqin etiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy jarayonlarni tizimli va kompleks tahlil qilish yondashuvi tashkil etadi. Tadqiqotda investitsiya jarayonlarining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini aniqlash maqsadida taqqoslash, umumlashtirish hamda iqtisodiy-mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, nazariy va amaliy ma'lumotlarni uyg'unlashtirish orqali xulosalar chiqarish hamda ilmiy natijalarning asoslanganligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Ushbu tadqiqot doirasida muallif tomonidan empirik tahlil olib borildi. Shuningdek, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanilgan holda makroiqtisodiyotda investitsiyalarni jalb etish bilan bog'liq jarayonlar tizimli ravishda o'rganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi hamda investitsiya faolligining o'sish sur'atlari, avvalo, investitsiya muhitining holatiga bevosita bog'liqdir. Mamlakatimizda qulay investitsiya muhitining shakllantirilishi xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etish, investitsiya faoliyatini rivojlantirish va uni samarali amalga oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida barqaror investitsiya muhitini yaratish va uning jozibadorligini oshirish davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida investitsion faollikning o'sish sur'atlari ham bevosita investitsiya muhitiga bog'liq bo'lib, u investitsiya resurslarini joylashtirishda umumiy mezon vazifasini bajaradi va, eng avvalo, kapital mablag'larning daromadlilikini ta'minlashga xizmat qiladi. Qulay investitsiya muhiti mamlakatga kapital oqimini rag'batlantiradi hamda investorlar faolligining oshishiga zamin yaratadi. Shu bois, investitsiya muhiti yaxshilangan sari investitsiyalar oqimi jadallashadi va iqtisodiy rivojlanish jarayonlari tezlashadi. Darhaqiqat, investitsiyalar iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi muhim omil hisoblanadi.



Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga keng jalb etish uchun zarur iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan ushbu yo'nalishda ko'rilayotgan tizimli choralar investitsiya muhitining barqarorligini ta'minlashga va uning jozibadorligini oshirishga qaratilgandir. Aynan shunday qulay sharoitlar mavjud bo'lgan mamlakatlarda investitsiya faoliyati izchil rivojlanadi va xorijiy kapital oqimi barqaror tus oladi.


Shu nuqtayi nazardan, investitsiya muhitiga doir quyidagi asosiy masalalar ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi: investitsiya muhitining mazmun-mohiyati, uning jozibadorligini belgilovchi omillar, investitsiya muhitiga beriladigan ilmiy ta'riflar, unga ta'sir etuvchi omillar hamda erkin iqtisodiy hududlarda investitsiya muhitining o'ziga xos xususiyatlari.

Iqtisodiyotda investitsiya faoliyatining rivojlanishi, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish ko'lami, ularning yo'nalishlari hamda samaradorligi bevosita investitsiya muhitining holati bilan belgilanadi. Shu sababli mazkur iqtisodiy tushunchaning tub mohiyatini o'rganish, uni nazariy va amaliy jihatdan asoslash masalalari turli iqtisodchi-olimlar va mutaxassislar tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Bu holat investitsiya muhitining iqtisodiy rivojlanishdagi muhim o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda investitsiya muhiti deganda mamlakat iqtisodiyoti yoki uning muayyan mintaqasiga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligi va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy hamda ekologik shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi [4].

Sodda qilib aytganda, investitsiya muhiti investitsiyalash bilan bog'liq munosabatlarni amalga oshirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va qulayliklar majmuasini ifodalovchi iqtisodiy voqelikdir. Investitsiya muhitining holati yaratilgan huquqiy baza, uning institutsional asoslari, shuningdek, qonun hujjatlarining sifatli ishlab chiqilishi va ularga qat'iy rioya etilishi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, investitsiya faoliyatini amalga oshirish shart-sharoitlarini ifodalovchi investitsiya muhiti, avvalo, investitsion faollik hamda investitsion jozibadorlikdan iborat bo'lib, u o'z navbatida investitsion salohiyat va investitsion risk darajasi bilan tavsiflanadi. Investitsiya muhitining tarkibiy tuzilishi 1-rasmda keltirilgan.


Investitsion jozibadorlik esa mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan korxonada miqyosida investitsiyalarning daromadlilik, rivojlanish istiqbollari hamda investitsion risk darajasi nuqtayi nazaridan baholanishini ifodalaydi (1-rasm).



1-rasm. Investitsion muhitning tarkibiy tuzilishi

Investitsion jozibadorlik investitsion salohiyat va investitsion risk darajasini shakllantiruvchi ikki guruh omillarning bir vaqtda ta'siri natijasida aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichlarga baho berish orqali investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi hamda jozibadorligi, shuningdek, investitsion risk darajasini baholash imkoniyati yuzaga keladi. Investitsion risk darajasi esa investitsion muhitning holatiga bevosita va to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Investitsion salohiyat mamlakatda uzoq tarixiy davr mobaynida shakllangan omillar yig'indisini ifodalaydi va ular "obyektiv" omillar sifatida tavsiflanadi. Unga tabiiy resurslar salohiyati, mehnat salohiyati, ishlab chiqarish salohiyati, innovatsion salohiyat, iste'mol salohiyati hamda moliyaviy salohiyat kiradi (2-rasm).



2-rasm. Investitsion salohiyat turlari

Tabiiy resurslar salohiyati quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: mineral resurslar (foydali qazilmalar), iqlim sharoitlari, mamlakatning geosiyosiy joylashuvi, yer va suv resurslari, shuningdek, o'simlik hamda hayvonot dunyosi.

Mehnat salohiyati iqtisodiy faol aholi soni, uning yosh tarkibi, joylashish zichligi, bilim va malaka darajasi, shuningdek, mehnatning o'rtacha qiymati kabi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Odatda, xorijiy investorlar malakali va raqobatbardosh ishchi kuchiga ega hududlarga alohida e'tibor qaratadilar.

Ishlab chiqarish salohiyati mamlakatda mavjud ishlab chiqarish quvvatlari, ishlab chiqarish vositalari, iqtisodiyot tarkibi, sanoat, qazib chiqarish va qayta ishlovchi tarmoqlarning o'zaro nisbati, muvaffaqiyatli amalga oshirilgan investitsion loyihalar soni hamda kichik biznesning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Iste'mol salohiyati investor tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ichki bozorda realizatsiya qilinishi imkoniyatlarini ifodalaydi. Bu jarayonda talab hajmi, raqobat darajasi va aholining daromadlari asosiy baholash mezonlari sifatida qaraladi.

Innovatsion salohiyat ilmiy yutuqlar, mamlakatdagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga yo'naltirilgan xarajatlar, texnika va texnologiyalarning yangilanish darajasi, shuningdek, yangiliklar va kashfiyotlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Moliyaviy salohiyat mamlakatning moliyaviy imkoniyatlari, iste'mol va jamg'arma o'rtasidagi nisbat, bank tizimidagi depozitlar va pul-kredit siyosati, tashqi qarz hamda ichki moliyaviy zaxiralar bilan belgilanadi.

Makroiqtisodiy muhit investitsiyalarni jalb etish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantiradi va investitsiya jarayonlarini rag'batlantiradi. Makroiqtisodiy nazariyada investitsiyalar (I), uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari (C), hukumat xarajatlari (G) hamda sof eksport ( $X_n$ ) bilan birgalikda jami xarajatlarni, ya'ni jami talabni tashkil etadi yoki uning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ya'ni:

$$YaMM = C + I + G + X_n$$

Yopiq iqtisodiyot sharoitida investitsiya mablag'larining asosiy manbalari mamlakatdagi uy xo'jaliklari jamg'armalari ( $S_p$ ) hamda hukumat jamg'armalari ( $S_g$ ) hisoblanadi.

$$S = S_p + S_g$$

Ochiq iqtisodiyot sharoitida bunga xorijga chiqariladigan mamlakat ichki jamg'armalari bilan xorijdan investitsiyalar va kreditlar ko'rinishida kirib keladigan jamg'armalar o'rtasidagi farq, ya'ni  $S_{xn}$ , ham qo'shiladi:

$$S = S_p + S_g + S_{xn}$$

Investitsiyalar hajmidagi u yoki bu manbaning ulushi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, daromadlar darajasiga, ijtimoiy tuzilmasiga, amalga oshirilayotgan iqtisodiy vazifalarga hamda iqtisodiy siyosat strategiyasiga bog'liq bo'ladi.

Investitsiyalar hajmini belgilovchi asosiy omillar foiz stavkasi va kutilayotgan o'rtacha foyda me'yorida. Iqtisodiyotga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmi foiz stavkasiga teskari proporsional kattalik sifatida qaraladi.



Investitsiyaga talab funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$I_{\text{talab}} = E - dR + nY$$

Bu yerda:

$I_{\text{talab}}$  — iqtisodiyotda investitsiyalarga bo'lgan talab hajmi;

$E$  — foiz stavkasi nolga teng bo'lgandagi investitsiyalarga maksimal talab hajmi;

$d$  — foiz stavkasi o'zgarishiga investitsiyalar hajmining o'zgarishi bog'liqligini ko'rsatuvchi empirik koeffitsient;

$R$  — bank foiz stavkasi;

$n$  — investitsiyalashga cheklangan moyillik;

$Y$  — jami daromad (yalpi milliy mahsulot).

Investitsiyalashga cheklangan moyillik investitsiya xarajatlaridagi o'zgarish miqdorining ( $\Delta I$ ) jami daromadlar o'zgarishidagi ( $\Delta Y$ ) ulushini ifodalaydi.

$$n = \Delta I / \Delta Y$$

Keltirilgan formula va grafikdan ko'rinib turibdiki, foiz stavkasi nolga teng bo'lgan sharoitda ham investitsiyalar hajmi ma'lum bir miqdor bilan chegaralanadi. Bunga mamlakatdagi daromadlar darajasining cheklanganligi, boshqa resurslarning miqdori va sifati, shuningdek, qurilish industriyasi hamda ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanish darajasi ta'sir ko'rsatadi. Mazkur omillar cheksiz hajmdagi investitsiyalarni o'zlashtirish imkoniyatini cheklaydi.

Kapital egalari, odatda, foiz stavkasidan yuqori yoki hech bo'lmaganda unga teng bo'lgan sof foyda me'yorini ta'minlaydigan loyihalargagina sarmoya kiritadilar. Shu bois, agar hukumat foiz stavkalarini pasaytirishga erishsa yoki kutilayotgan sof foyda me'yorining oshishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilsa, iqtisodiyotga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmi izchil ortib boradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Investitsiyalar loyihalarni amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan pul mablag'lari, shuningdek, moddiy va nomoddiy aktivlar majmuasini ifodalaydi. Investitsiyalarni jalb etish darajasi iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonining ko'lamini aks ettiradi. Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, investitsiyalar asosiy va aylanma kapitalni yaratish, kengaytirish yoki rekonstruksiya qilish hamda qayta qurollantirish uchun amalga oshiriladigan xarajatlar sifatida talqin etiladi. Tijorat amaliyotida fizik aktivlar, pul aktivlari va nomoddiy aktivlarga yo'naltirilgan investitsiyalar birbiridan farqlanadi. Tavakkalchilik darajasining turlicha bo'lishiga ko'ra, investitsiyalar samaradorlikni oshirishga, ishlab chiqarishni kengaytirishga, yalpi ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishga hamda davlat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan turlarga ajratiladi. Investitsiya xarajatlari yalpi milliy mahsulot (YaMM) tarkibida muhim salmoqqa ega bo'lib, ularning asosiy manbai jamg'armalar, shu jumladan, chet el jamg'armalari hisoblanadi.

Investitsiyalarga bo'lgan talab hajmini belgilovchi asosiy omillar foiz stavkasi va sof foyda me'yoridir. Investitsiyalar, jumladan, real aktivlarga yo'naltiriladigan investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini baholashning asosiy mezonini ularning firma boyligiga ko'rsatadigan ta'siri bilan belgilanadi. Investitsiya siyosati deganda belgilangan maqsadlarga erishish uchun investitsiya manbalarini shakllantirish, ularni ustuvor sohalariga yo'naltirish hamda samarali o'zlashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuasi tushuniladi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yoqilg'i-energetika va don mustaqilligini ta'minlash, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni jadallashtirish, eksport salohiyatini oshirish va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish uchun ustuvor tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, chet el investitsiyalarini jalb etish maqsadida ochiq eshiklar siyosatini izchil olib borishga qaratilgan.

Chet el investitsiyalari rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ularni jalb etishda kontsessiya va kompensatsiya shartnomalari kabi turli uslublardan foydalaniladi. Chet el investitsiyalarini keng miqyosda jalb etish zarurati mamlakatda investitsiya muhitini yanada takomillashtirishni, uning barqarorligi va jozibadorligini oshirishga qaratilgan tizimli choralarni izchil amalga oshirishni taqozo etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shodmonov E.Sh., Bababekova D.Sh., Tursunov B.O. Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish. Darslik. — T.: 2019. — 525 bet.
2. Ulashev I.O., Atamuradov Sh.A. Korxonalar iqtisodiyoti va menejmenti. O'quv qo'llanma. — Toshkent, 2013.
3. Muratov R.S., Jalalova I.A., Oripov S.Sh. Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik. — T.: TDIU, 2011. — 500 bet.
4. Xujamkulov D.Y. Erkin iqtisodiy hududlar. Darslik. — T.: Iqtisodiyot, 2019. — 408 bet.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

### 1-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>